

EKOLOGIYAGA ONGLI MUNOSABAT

3- sinflar uchun

Maqsadlar: Fanlararo mavzuni yangi, kommunakativ bilimlarni shakllantirish, fanlararo ekologik tarbiya berish, o'quvchilarga dalil va dalilga asoslangan xulosa orasidagi farqni tushunib yechishni o'rgatish, fanlararo o'quv faoliyatiga jalb etish jarayonida tabiatga nisbatan mas'ullikni shakllantirish.

Jihozlar: «Tabiat» manzarasi aks ettirilgan rasmlar, darsliklar, qog'oz, flomaster.

Dars uslubi: «Munozara».

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism: Salomlashish, navbatchi axboroti, o'quvchilarni darsga tayyorlash.

II. Uy vazifasini so'rash va baholash: Takrorlash.

III. Yangi mavzu:

Eko. o'q. tarbiya berish yuzaskian fanlararo cars mavzusl

Vavzur far araro akxjadori kda ~_nozaraoa" boshlaymiz. S "fdagi oz_" =—g barchas ishtirok ecsra- CEFT. '- '_nozara boshlanishida ciziqtirish uchun quyidagi savollarni berish mumkin:

-Tabiat nima?

- Tabiatni qanday asraymiz?

- Ekologiya nima?

- Odam tabiatga qanday ta'sir qiladi?

- Konstitutsiyaning 55-moddasida nima deyilgan?

O'quvchilar mazkur savollarga javob topa oladigan fanlararo mavzularni tanlaydilar. «O'qish» fanidan «Tabiat bilan suhbat», «Odobnoma» fanidan «Tabiatni asrash — burchimiz», «Tabiatshunoslik» fanidan «Ekologiya nima?» hamda «Matematika» va «Ona till» fanlaridan ekologik mazmundagi mashq va masalalar tanlanadi.

O'quvchilar yuqoridagi mavzular asosida bahsga quyidagicha kirishadilar.

•Atrofimizdagi barcha narsalar -
(*Fanlararo uzviylik*) tabiat.

•Tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish.

•«Ekologiya» so'zi yunoncha «oykos» - uy, turar joy va «logos» - fan degan so'zlardan tashkil topgan.

•Ekologiya — barcha tirik mavjudotlarning umumiy uyi bo'lgan taboatni asrash, muhofaza qilish haqidagi fandır.

Odam tabiatga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida: «Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralarni umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur», deyilgan.

■ Suvni tejab ishlatish.

• O'simlik va hayvonlarga g'amxo'riik qilish.

•Taoatoa qudratii such - do'sdikka erishish.

• Inson o'z ehtyoji uchun zarur narsalarni tabiatdan oladi.

•Tabiatdagi salbiy o'zgarishlarning oldini olish.

• Odam — tabiatning bir bo'lafi.

• Tabiatga yetkazilgan zararlarni tikiash lozim.

Aytib o'tilgan dalillardan eng muhimi quyidagicha ajratiladi:

• Inson o'z ehtyoji uchun zarur narsalarni tabiatdan oladi.

• Tabiatni asrash - burchimiz.

• Ekologiya - odamning tabiatga munosabatini o'rganadi..

Yuqoridagi fikrlar asosida ekologik mazmunda qisqacha hikoya yozish:

Tabiat va inson

Tabiat maftunkor go'zalligi bilan o'ziga rom etadi. Inson o'ziga kerakli narsalarni tabiatdan oladi. Tabiatga bo'lgan salbiy ta'sirni o'rganish ekologiya fani asosida vujudga keladi.

Ekologik mazmundagi masalalarni yechamiz.

Zag'izg'on 27 yil yashaydi, qaldirg'och zag'izg'ondan 3 marta kam, olaqarg'a esa zag'izg'ondan 40 yil ortiq yashashi mumkin. Olaqarg'a necha yil yashashi mumkin?

Zag'izg'on - 27 yil,

Qaldirg'och?, - 3 marta kam,

Olaqarg'a?, - 40 yil ortiq Yechish:

$27 : 3 = 9$ (yil)

$40 + 9 = 49$ (yil)

Javob: Olaqarg'a 49 yil yashashi mumkin.

IV. O'tilgan mavzuni mustahkamlash:

Ob-havo darakchilari haqida ma'lumot berish.

•Kamalakning paydo bo'lishi keyingi kunlarda havo ochiq bo'lishining belgisidir.

•Qoqigul yumilsa, havo ayniydi.

•Pechakgul katta-katta bo'lib ochilsa, havo ochiq bo'ladi.

•Terakning kuchalasi uchib yursa, havo ochiq bo'ladi.

■Gulzor atrofida aylanib yuring. Gullar odatdagidan ko'proq hid taratganini sezsangiz, yomg'ir yog'ishini kutishingiz mumkin.

•Yomg'ir yog'ayotganda shamol tursa, havo ochilib ketadi.

■Qora bulutlar pastlab tez suzsa, yomg'ir uzoq davom etadi.

■Shiddat bilan yog'ilgan yomg'ir tez to'xtaydi, shivalab yog'ilgan yomg'ir uzoq davom etadi.

•Yomg'ir tomchilari ko'lmakda pufakchalar hosil qilsa, yomg'ir bir necha kun davom etadi.

V. Uyga vazifa: Mavzularni takrorlash.

4- sinflar uchun

Maqsad: Fanlararo ekologik mavzularni tahlil qilish, tarbiya berish, tanqidiy tafakkurni o'stirish, mustaqil xulosaga kelishga jalb etish.

Jihozlar: darsliklar, qog'oz, flomaster.

Uslub: Kichik guruhlarda ishlash.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism: Salomlashish, navbatchi axboroti, o'quvchilarni darsga tayyorlash.

II. Uy vazifasini so'rash va baholash: Takrorlash.

III. Yangi mavzu: Ekologik tarbiya yuzasidan fanlararo dars mavzusi.

O'qituvchi:Aziz o'quvchilar! Bugungi darsimizni fanlararo aloqadorlikda kichik guruhlarda muammoni hal etamiz. Sinf o'quvchilari guruhlariga bo'linadi. Har biri o'z nomi, sardori, munozara

boshqaruvchisi, yozuvchi, adabiyotlar bilan ishlovchi harpda kotibiga ega bo'ladi. Guruhda o'quvchilar aniq taqsimlangan vazifalarda muammoni o'rganadilar. O'quvchilarga fan mavzularidagi ekologik tarbiyaga oid ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha tushuntirish beriladi. O'qituvchi guruhlarining ishlash tezligi turlicha bo'lishini inobatga olgan holda vaqt chegarasini aytadi. Guruhlar kerakli material va axborotlar bilan ta'minlanadi. O'quvchilarni guruhda ishlashlari uchun quyidagi o'quv vazifalari beriladi.

1- guruhga: «O'qish» fanining «Nihollarning no'iasini» mavzusi.

2- guruhga: «Odobnoma» fanining «Mo'tabar qadimiy qo'lyozma» mavzusi.

3- guruh uchun: «Tabiatshunoslik» fanining «Tabiatga g'amxo'r bo'ling» mavzulari.

4- guruh «Ona tili» fanidan ekologik mazmundagi mashqlarni bajarishadi.

5- guruh «Matematika» fanidan ekologik mazmundagi masalalarni echishadi.

Mazkur o'quv vazifalari asosida har bir guruh o'z ishini boshlaydi.

1- guruh a'zolari «Nihollarning "olasi" asosida kichik hikoya tuzishadi: Hikoya

Shaharda ko'kalamzorlashtirish igi bo'lganligi sababli xiyobonlarga mevali va manzarali ko'chatlar ekiladi. Ertalab quyosh chiqishi bilan "olchalar uyg'onishadi. Bir kuni z-osh haddan tashqari qizib ketgani _chun niholchalar «suv», deb faryod cteka boshlashdi. Ertasiga ertalab

holchalarning ko'pchiligi uyg'onishmadi.

2- guruh a'zolari «Mo'tabar qadimiy qo'lyozma» asosida tabiat muhofazasi va ekologiyaga oid fikrlar tahlili ustida ishlashadi.

Zardo'shtiylik ta'limotida tuproq, suv, havo va olov muqaddaslash- tirilgan. «Avesto»da tabiatning muqaddasligi bayon etiladi. Ezgulik va yaxshilik xudosi Axuramazdaning mavjudligi tabiatning barqarorligida ro'y beradi.

Asarda «Axuramazda dunyoni yaratib, yerlarni, mollarni taqsimlab, boshpana berar ekan, tinch mehnatdan rohatlanishni bog' yaratishni, mol boqishni, dehqonchilik qilib, uy qurishni va pokiza hayot kechirishni ato etadi», deb yozilgan. Shu bilan birga suv, yerning

muqaddasligi hamda itlarga g'amxo'r bo'lish g'oyasi asarning quyidagi parchalarida o'z aksini topgan:

Ey suvlar! Sizlar yaxshilik bilan ravonasiz, xilqatni yuvib, pok etasiz va ikki jahon saodatiga sazovorsiz. Biz sizlarni e'zozlaymiz.

Manzillar, qishloqlar, yaylovlar, xonumanlar, suvloqlarni olqishlaymiz.

Zamini hammadan ko'ra baxtiyor bo'lgan joy - bug'doy, yog'li va mevali daraxtlar ekkan, odamlar quruq yerlarga suv chiqargan, suvli yerlarni shudgor qilgan zamindir.

Uzoq davr ekilmagan va omoch tegmagan zamin baxtsizdir. U omochni orzu qiladi. Bunday zamin baiog'at pallasiga kirgan sohibjamol qizdir.

Kimki gala itini, xoraki itni, yo daytf itni yoxud ov itir urib o'ldirsa, -r'ng ruhi narig c^-ccr ko'chga^idan so'ng, neps .or t>- crnoarpra bc'r tilkalayotgan qc'.ng dahshat ovozar ayanch me faryod bilan behishtni tark asci.

Go'ristonlarni shahar va qishloqlardan yiroqda .tashkil etish xususida fikrlar bayon etilgan. Jasad alohida ajratilgan minoralarga qo'yilishidan maqsad jasad yerni iflos qilmasligi, suvni bulg'amasligi, o'tlarni zaharlamasligi kerak.

Asarda muhit tozaligini saqlash hamda kasalliklarning oldini olishda axlatlarni berkitish, ifloslangan joylarni tuproq, tosh, kul bilan ko'mish, otash, issiqlik va sovuqlik yo'li bilan, kimyoviy yo'l bilan mikroblar kamaytirilishiga e'tibor qaratilgan.

3- guruh a'zolari «Tabiatga g'amxo'r bo'ling» mavzusi asosida O'zbekistonning ekologik muammolari haqida ma'lumot yig'adilar.

Prezidentimiz I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asaridagi fikrlar bilan quyidagicha tanishadilar:

Birinchidan, yerning cheklanganligini va uning sifat tarkibi pastligi bilan bog'liq xavf to'xtovsiz ortib bormoqda.

Ikkinchidan, suv zahiralarning, shu jumladan, yer usti va yer osti suvlarining keskin taqchilligi hamda ifloslanganligi katta tashvish tug'dirmoqda.

Uchinchidan, Orol dengizining qurib borish xavfi g'oyat keskin muammo.

To'rtinchidan, havo bo'shlig'ining ifloslanishi.

4- guruh a'zolari ona tilidan ekologik

mazmundagi mashqni bajaradilar. Kitobning 99-betidagi 231-mashq bajariladi.

Yerga ekishdi. Nihollarga nima bo'ldi? Tuproqqa salom berishayapti. Bag'ringga olganing. Ko'kka bo'y cho'zib. Tuproqqa salom bergan.

5- guruh a'zolari ekologik mazmunda masalalar yechishadi.

Birinci idishda 48 litr suv bor. Ikkinchi idishdan 12 litr suv to'kildi, unda birinchidan ikki marta kam suv qoldi. Ikkinchi idishda necha litr suv bo'lgan?

1- 48 litr

2- dishdan to'kildi -12 litr^

Qoldi - ?, 2 marta kam

Yecnsri:

1; 48 : 2 = 24 (litr)

2) 24 - 12 = 36 (Rtr)

Javob: Ikkinchi idishda 36 litr suv bo'lgan.

Guruhlar yakuniy bosqichda ish natijalari bo'yicha axborot beradilar.

IV. O'tilgan mavzuni mustahkamlash:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining boblari hamda manbalarda yoritilgan tabiat muhofazasi haqida suhbat.

V. Uyga vazifa: Takrorlash.

**N.ISAQULOVA,
O'MKHTTKMO va UQTI.**